

“KELAJAK SOATI” O‘QUV DASTURI

(5–8-sinf o‘quvchilari uchun)

KIRISH

“Kelajak soati” umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularda Vatanga sadoqat, milliy o‘zlikni anglash, fuqarolik mas’uliyati, ma’naviy-axloqiy fazilatlar, huquqiy va raqamli madaniyat, mustaqil fikrlash hamda ijtimoiy faollikni shakllantirishga qaratilgan tizimli tarbiyaviy mashg‘ulotlar majmuasidir. Konsepsiyada “Kelajak soati” ning asosiy maqsadi yuksak ma’naviyat, mustaqil tafakkur, milliy o‘zlik, Vatanga daxldorlik va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish bilan belgilangan.

Maqsadi

O‘quvchilarda Vatanga muhabbat va daxldorlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, fuqarolik mas’uliyati, ma’naviy-axloqiy fazilatlar, huquqiy va raqamli madaniyat, mustaqil fikrlash hamda kelajakka mas’uliyatli munosabatni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Vazifalari

1. O‘quvchilarda Vatanga sadoqat, milliy g‘urur va fuqarolik daxldorligini shakllantirish;
2. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, tarixiy xotira va madaniy merosga hurmatni kuchaytirish;
3. Ilm-ma’rifat, kitobxonlik, mehnat va kasbga qiziqishni rivojlantirish;
4. Huquqiy madaniyat va xavfsiz xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllantirish;
5. O‘quvchilarni mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlashga yo‘naltirish;
6. Raqamli muhitda xavfsiz va mas’uliyatli harakat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
7. O‘quvchilarning muloqot, hamkorlik, tashabbuskorlik va ijtimoiy faolligini oshirish.

Kutilayotgan natijalar

1. Mustaqil va tanqidiy fikrlash - axborot va dalillarni tahlil qiladi, turli nuqtai nazarlarni taqqoslaydi, mustaqil xulosa chiqaradi va asoslangan qaror qabul qiladi.
2. Samarali muloqot - o‘z fikrini aniq, mantiqiy va madaniyatli ifodalaydi, savol beradi, faol tinglaydi va boshqalarning fikrini hurmat qiladi.
3. Hamkorlik - jamoada ishlaydi, umumiy maqsadni belgilaydi, vazifalarni taqsimlaydi va jamoaviy natija uchun shaxsiy mas’uliyatni his qiladi.
4. Ijodkorlik va innovatsion fikrlash - yangi g‘oyalar ilgari suradi, mavjud muammolarga turlicha yondashadi va amaliy yechimlar ishlab chiqadi.
5. Muammoni hal qilish va qaror qabul qilish - hayotiy va ijtimoiy vaziyatlarni baholaydi, muqobil yechimlarni tahlil qiladi va mas’uliyatli qaror qabul qiladi.
6. Axborot va raqamli savodxonlik - axborotni izlaydi, saralaydi, ishonchliligini baholaydi va raqamli texnologiyalardan xavfsiz hamda mas’uliyatli foydalanadi.
7. Fuqarolik mas’uliyati va vatanparvarlik - Vatan, xalq, milliy qadriyatlar va madaniy merosga hurmat bilan munosabatda bo‘ladi, jamiyat hayotida faol va mas’uliyatli fuqarolik pozitsiyasini namoyon etadi.
8. Ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar - o‘z his-tuyg‘ularini boshqaradi, boshqalarning holatini tushunadi, bag‘rikenglik, mehr-oqibat, adolat va insonparvarlik tamoyillariga amal qiladi.
9. O‘zini anglash va uzluksiz rivojlanish - o‘z qobiliyati va qiziqishlarini anglaydi, maqsad qo‘yadi, o‘z faoliyatini tahlil qiladi va shaxsiy rivojlanish yo‘nalishini belgilaydi.
10. Mas’uliyatli amal va tashabbuskorlik - olgan bilim va shakllangan qadriyatlarini hayotiy vaziyatlarda qo‘llaydi, tashabbus ko‘rsatadi, ijtimoiy faoliyatda ishtirok etadi va o‘z qarorlari hamda xatti-harakatlari uchun mas’uliyatni his qiladi.

Mashg'ulotlarni tashkil etish modeli

“Kelajak soati”ning har bir 4 soatlik mavzusi o‘quvchining bilimni egallashi, unga nisbatan shaxsiy munosabatini shakllantirishi, o‘zlashtirilgan bilim va qadriyatlarni amaliy faoliyatda qo‘llashi hamda faoliyatini tahlil qilishi tamoyili asosida bosqichma-bosqich tashkil etiladi.

Har bir 4 soatlik mavzu **“Bilish – Munosabat – Amal – Refleksiya”** modeli asosida amalga oshiriladi.

1-soat – Bilish. Savol, hikoya, rasm, video, kuzatish va boshqa manbalar orqali mavzuni anglash, asosiy tushuncha va g‘oyalarni aniqlash, savollar berish hamda dastlabki xulosalarni shakllantirishga yo‘naltiriladi.

2-soat – Munosabat. Oila a‘zolari, do‘stlar, tengdoshlar va yaqinlar bilan suhbatlashish, fikr almashish, o‘z fikri va hayotiy tajribasini boshqalarning qarashlari bilan taqqoslash, turli nuqtai nazarlarni tinglash va ularga munosabat bildirishga qaratiladi.

3-soat – Amal. Muammoli vaziyatni tahlil qilish va yechish, ijodiy topshiriq bajarish, kichik loyiha, amaliy ish yoki volontyorlik faoliyatida ishtirok etish orqali olingan bilim va shakllangan qadriyatlarni hayotiy vaziyatlarda qo‘llashga yo‘naltiriladi.

4-soat – Refleksiya. Bajarilgan ish natijasini taqdim etish, o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash, nimani o‘rganganini aniqlash hamda “Mening keyingi qadamim” mazmunida shaxsiy xulosa va kelgusidagi harakatlarini ifodalashga yo‘naltiriladi.

Mazkur model o‘quvchini mavzuni faqat tinglovchi sifatida emas, balki bilimni egallovchi, fikrllovchi, munosabat bildiruvchi, amalda qo‘llovchi va o‘z faoliyatini baholovchi faol subyekt sifatida ishtirok etishiga imkon beradi.

Ajratilgan soat va mashg'ulot vaqti

“Kelajak soati” mashg'ulotlari Konsepsiyaga muvofiq haftasiga 1 akademik soat - 45 daqiqa davomida tashkil etiladi.

1-4, 5-8 va 9-11-sinflar uchun o‘quv dasturida belgilangan umumiy soat hajmi 34 soatni tashkil etadi. Mashg'ulotlar o‘quv yili davomida tasdiqlangan taqvim-mavzu reja asosida tashkil etiladi.

Dasturga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish

“Kelajak soati» o‘quv dasturining yagona maqsadi, ustuvor vazifalari, tayanch mazmuni va kutilayotgan natijalarini saqlagan holda, ta’lim muassasasining pedagogik sharoiti, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlari, hududiy ehtiyojlari hamda dolzarb tarbiyaviy masalalardan kelib chiqib, pedagogik kengash qarori asosida dastur mazmuniga 15 % gacha o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish mumkin. Bu o‘zgartirish moslashtirish doirasida mahalliy materiallar, hayotiy misollar, keyslar, Ijodiy topshiriqlar, qo‘shimcha amaliy faoliyatlar va dolzarb tarbiyaviy mavzular kiritilishi mumkin. Bunda dasturning asosiy maqsadi, ustuvor vazifalari, tayanch mazmuni va kutilayotgan natijalari o‘zgarmasligi shart.

Konsepsiyada ham «Kelajak soati» mazmunini o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va hayotiy ehtiyojlariga moslashtirish, interaktiv hamda amaliy metodlardan foydalanish zarurligi belgilangan.

Dasturning yakuniy pedagogik natijasi - o‘z Vatani va jamiyatiga daxldorligini anglaydigan, milliy qadriyatlarni qadrlaydigan, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy ko‘nikmalarga ega, mas’uliyatli qaror qabul qila oladigan va o‘z bilim hamda salohiyatini jamiyat taraqqiyoti yo‘lida qo‘llaydigan faol shaxsni shakllantirishdan iborat.

5–8-SINFLAR UCHUN “KELAJAK SOATI”NING YILLIK O‘QUV REJASI

№	O‘quv mavzulari nomlanishi	Vaqt	Soat
1	“Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamizi!”	Sentabr	4
2	Ustozga- ehtirom millatga- ehtirom!	Oktabr	4
3	Ramzlarimiz- g‘ururimiz, o‘zligimiz- ildizimiz!	Noyabr	4
4	Qonunga hurmat- xavfsiz va baxtli hayot garovi.	Dekabr	4
5	Jasoratli avlod- yurt tayanchi!	Yanvar	3
6	Buyuk ajdodlar merosi, ma’naviy kamolot manbai.	Fevral	4
7	Qadriyatlar- o‘zligim timsoli.	Mart	3
8	Tariximiz- faxrimiz, merosimiz- boyligimiz.	Aprel	4
9	Xotira-mangu, qadr-muqaddas.	May	4
	Jami:		34

5–8-SINFLAR UCHUN “KELAJAK SOATI”NING OYLAR KESIMIDA TAQVIM MAVZULAR REJASI

Oy / hafta soni	Asosiy (yoʻnalish)	1-hafta	2-hafta	3-hafta	4-hafta
Sentabr (4 soat)	Vatan, millat va davlatchilik	“Yagona vatan, yagona xalq boʻlib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” mavzusida video kontent, tarqatma materiallar va amaliy topshiriqlar asosida darsni tashkil etish.	Oilada: “Mustaqillik yillari yutuqlari” haqida suhbat qilinib, olingan xulosalar maktabda tahlil qilinadi	Kichik loyiha. “Yangi Oʻzbekiston” mavzusida (intervyu, videokontent, taqdimot) tayyorlash	“Mustaqillik: kecha, bugun va kelajak” mavzusida qisqa esse yozish
Oktabr (4 soat)	Ilm, maʼrifat va kasbiy yoʻnalish	“Ustozga ehtirom- millatga ehtirom!” mavzusida video kontent, tarqatma materiallar va amaliy topshiriqlar asosida darsni tashkil etish.	Oila davrasida “Ustoz otangdek ulugʻ” maqolini tahlil qilib kelish va darsda xulosalarni muhokama qilish	Kichik loyiha. “Mening ustozim” kichik taqdimot (video-murojaat, plakat, tabrik xati) tayyorlash	“Ustoz kelajak meʼmori” mavzusida qisqa esse yozish
Noyabr (4 soat)	Mustaqillik timsollari	“Ramzlarimiz-gʻururimiz, oʻzligimiz ildizimiz!” mavzusiga doir video kontent, tarqatma materiallar va amaliy topshiriqlar asosida darsni tashkil etish.	Oila aʼzolari davrasida video kontent tahlil qilib kelish va darsda muhokama qilish	Kichik loyiha. Ramzlarga doir (QR-kodli videokontent, taqdimot, audio, video podcast) tayyorlash	“Vatanimning uch timsoli” mavzusida qisqa esse yozish
Dekabr (4 soat)	Huquqiy madaniyat va xavfsizlik	“Qonunga hurmat-xavfsiz va baxtli hayot garovi.” mavzusida video kontent, tarqatma materiallar va amaliy topshiriqlar asosida darsni tashkil etish.	Oilada: oilaviy huquq va majburiyatlarga oid suhbat olib borish va darsda soʻzlab berish	Kichik loyiha. Keys-tahlil: huquqiy vaziyat boʻyicha guruh ishi	“Fuqaro sifatida masʼuliyatim” mavzusida qisqa esse yozish
Yanvar (3 soat)	Vatan himoyasi va mardlik	“Jasoratli avlod - yurt tayanchi!” video kontent, tarqatma materiallar va	Oilada: oila tarixidagi mardlik namunalari suhbat. Oilaviy	(3 haftalik oy: loyiha bosqichi qisqartirilgan)	“Haqiqiy lider qanday boʻladi?” qisqa esse yozish

Oy / hafta soni	Asosiy (yoʻnalish)	1-hafta	2-hafta	3-hafta	4-hafta
		amaliy topshiriqlar asosida darsni tashkil etish.	muhoqamalarni darsda tahlil qilinadi.		
Fevral (4 soat)	Ajdodlar merosida ahloq va odob tarbiyasi	“Buyuk ajdodlar merosi - maʼnaviy kamolot manbai” mavzusida Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiga oid video kontent, tarqatma materiallar va amaliy topshiriqlar asosida darsni tashkil etish.	Oilada: mushoira chelenji tashkil etish va video tayyorlab kelish va darsda namoish etish	Kichik loyiha: “Agar Navoiy va Bobur bugun yashaganida...” mavzusida (Tarixiy albom, xarita, video yoki taqdimot) tayyorlash.	“Ikki buyuk siymodan olgan saboqlarim” qisqa esse yozish
Mart (3 soat)	Milliy oʻzlik va madaniy meros	“Qadryatlar- oʻzligim timsoli” mavzusiga oid video kontent, tarqatma materiallar va amaliy topshiriqlar asosida darsni tashkil etish.	Oilada: oilaviy urf-odatlar va anʼanalar suhbat. Oilaviy muhoqamalar darsda tahlil qilinadi.	(3 haftalik oy: loyiha bosqichi qisqartirilgan)	“Milliy oʻzlik - zamon bilan uygʻunlik” qisqa esse yozish
April (4 soat)	Buyuk ajdodlar - milliy faxrimiz	“Tariximiz -faxrimiz, merosimiz - boyligimiz”mavzusida, video kontent, tarqatma materiallar va amaliy topshiriqlar asosida darsni tashkil etish.	Oilada: Sohibqiron Amir Temur va Temuriylar davlatchiligi haqida muloqot qilib kelish va muloqot asosida darsda debat tashkil etish	Kichik loyiha. “Temur izidan” (tarixiy meros xaritasi, poster, infografika, buklet, podcast) yaratish	“Sohibqiron siymosi mening nigohimda” qisqa esse yozish
May (4 soat)	Xotira va qadrlash insoniylik mezon	“Xotira - mangu, qadr - muqaddas” mavzusida video kontent, tarqatma materiallar va amaliy topshiriqlar asosida darsni tashkil etish.	Oilada: yaqinlarni xotirlash , inson qadri mavzusida suhbat. Oilaviy muhoqamalar darsda tahlil qilinadi.	Kichik loyiha: “Vatan tayanchi” mavzusida taqdimot tayyorlash	Yil yakuni: “Xotira - millat ruhining koʻzgusi” qisqa esse yozish

5-8-SINFLAR UCHUN “KELAJAK SOATI”NING O‘QUV DASTURI MAZMUNI

1-mavzu. “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” (4 soat)

Kelajak soati mazmuni. Mustaqillik tushunchasi, uning xalqimiz hayotidagi tarixiy va bugungi kundagi ahamiyati, mustaqillik tufayli erishilgan imkoniyatlar haqida tushuncha berish. Vatan, milliy o‘zlik, fuqarolik, daxldorlik, vatanparvarlik va Vatanga sadoqat tushunchalarining mazmunini ochib berish. O‘zbekiston - barchamiz uchun yagona Vatan ekani, uning tinchligi, osoyishtaligi, taraqqiyoti va kelajagi har bir fuqaroning mas’uliyati ekanini anglatish. Oila, maktab va jamiyatda tinchlik, do‘stlik, hamjihatlik, mehr-oqibat, bag‘rikenglik va o‘zaro hurmat muhitini asrashning ahamiyatini hayotiy misollar orqali tushuntirish. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda amalga oshirilgan muhim islohotlar, ta’lim, fan, sport, madaniyat va yoshlar rivoji uchun yaratilgan imkoniyatlar haqida ma’lumot berish. Vatanparvarlikni kundalik hayotdagi amaliy ishlar orqali namoyon etish: yaxshi o‘qish, bilim olish, kitob mutolaa qilish, kasb va hunarga qiziqish, o‘z qobiliyatlarini rivojlantirish, maktab va jamoat mulkini asrash, tabiatni muhofaza qilish, ona tilini qadrlash, milliy an’ana va qadriyatlarga hurmat bilan qarash, odob-axloq qoidalariga rioya qilish, kattalarni hurmat qilish, tengdoshlariga ko‘maklashish va jamiyat hayotiga befarq bo‘lmaslik. Yagona Vatan va yagona xalq g‘oyasi asosida o‘quvchilarda milliy g‘urur, Vatanga muhabbat, fuqarolik mas’uliyati, daxldorlik hissi va kelajakka ishonchni mustahkamlash.

Ijodiy topshiriqlar

1. **Kichik hikoya** - “Agar men O‘zbekiston kelajagi uchun mas’ul bo‘lsam” mavzusida 7–10 gapdan iborat hikoya yozish.
2. **Komiks** – “Bir yaxshi ish - Vatan taraqqiyotiga hissa” mavzusida 4–6 kadrli komiks yaratish.
3. **Kichik loyiha** - o‘zi yashaydigan oila, maktab yoki mahalla hayotini yaxshilashga qaratilgan kichik loyiha taklif qilish. “Maktabimizni yanada obod qilamiz”, “Kitobxon sinf”, “Toza maktab hovlisi”.
4. **Og‘zaki taqdimot** – “Men kelajakda Vatanimga qanday foyda keltiraman?” mavzusida 1–2 daqiqalik chiqish tayyorlash.
5. **“5 qadam”** - “Vatan ravnaqiga mening hissam” mavzusida 5 bosqichli reja tuzish. Masalan: yaxshi o‘qish, bilim olish, kasb egallash, mas’uliyatli bo‘lish, jamiyatga foyda keltirish.
6. **Guruhiy loyiha** - 4-5 kishilik guruhda “Yangi O‘zbekistonning faol yoshlari” mavzusida poster, maket, taqdimot yoki sahna ko‘rinishi tayyorlash.

O‘quvchilarda shakllanadigan kompetensiyalar

1. Hayotiy vaziyatlarni tahlil qiladi, Vatan va jamiyat uchun foydali yoki zararli xatti-harakatlarni farqlaydi hamda o‘z fikrini dalillar bilan asoslaydi.
2. O‘z fikri va qarashlarini aniq ifodalaydi, boshqalarning fikrini tinglaydi va hurmat qiladi.
3. Umumiy maqsad yo‘lida tengdoshlari bilan hamkorlik qiladi, vazifalarni taqsimlaydi va jamoaviy natijaga hissa qo‘shadi.
4. Vatan va jamiyat rivojiga oid shaxsiy g‘oyalarini loyiha, poster, taqdimot yoki boshqa ijodiy shaklda ifodalaydi.
5. Oila, maktab va mahalladagi hayotiy muammolar uchun foydali yechim va amaliy takliflar ishlab chiqadi.

6. O'z imkoniyatlari va mas'uliyatini anglaydi, bilim olish, mehnat qilish va foydali faoliyat orqali Vatan ravnaqiga hissa qo'shish yo'llarini belgilaydi.

2-mavzu. Ustozga - ehtirom, millatga – ehtirom! (4 soat)

Kelajak soati mazmuni. Ustoz, ta'lim, tarbiya, bilim, ma'rifat va ehtirom tushunchalarining mazmun-mohiyati. Ustozning inson kamoloti, dunyoqarashining shakllanishi, bilim va qobiliyatlarning rivojlanishi hamda jamiyat taraqqiyotidagi beqiyos o'rni. Ustoz mehnatini qadrlash, uning nasihat va tavsiyalariga quloq tutish, bilim olishga mas'uliyat bilan yondashish, dars jarayonida faol ishtirok etish va o'z ustida muntazam ishlash. Buyuk ajdodlarimiz hayoti va faoliyatida ustoz-shogird an'analari, ilm-ma'rifatga intilish, ustozni ulug'lash va ilm ahliga hurmat ko'rsatishning yuksak namunalari. Kitob o'qish, mustaqil izlanish, savol berish, yangi bilimlarni egallash orqali dunyoqarashni kengaytirish, qobiliyat va qiziqishlarni rivojlantirish. Ustozga hurmatni salomlashish, odobli muomala, diqqat bilan tinglash, dars intizomiga rioya qilish, berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida va vijdonan bajarish, ustozning mehnatini qadrlash hamda yaxshi o'qish orqali namoyon etish. Bilim va ko'nikmalarni kundalik hayotda qo'llash, o'z kuchiga ishonish, maqsad sari intilish, qiziqish va qobiliyatlarni anglash hamda kelajakdagi kasb va faoliyat yo'nalishini tanlashga ongli ravishda tayyorgarlik ko'rish. Ustozga hurmat - ilmga, ma'rifatga, milliy qadriyatlarga va kelajakka hurmat ekanini anglatish.

Ijodiy topshiriqlar

1. **“Bir savol - bir kashfiyot”** - sizni qiziqtirgan mavzu bo'yicha ustozingizga 5 ta mazmunli savol tayyorlang, javoblarni o'rganib, ular asosida kichik taqdimot yarating.
2. **“Bilimning kuchi”** - bilim va ta'lim inson hayotini qanday o'zgartirishini real hayotdan misollar asosida **video, podkast yoki hikoya** orqali ifodalang.
3. **“Ustozga ochiq maktub”** - ustozingizga minnatdorlik, hurmat va kelajakdagi maqsadlaringiz aks etgan ochiq maktub yozing.
4. **“Mening rivojlanish xaritam”** - o'z qiziqishlaringiz, qobiliyatlaringiz va kuchli jihatlaringizni aniqlab, ularni rivojlantirish uchun **shaxsiy rivojlanish rejasini** tuzing.
5. **“Ilmga eltuvchi yo'l”** - kitob, ustoz, mustaqil izlanish, tajriba va zamonaviy texnologiyalarning bilim olishdagi o'rnini aks ettiruvchi kreativ model yarating.
6. **“Ustozga ehtirom - amalda”** - ustoz mehnatini qadrlashni ifodalovchi 5 ta amaliy harakatni belgilang va ulardan birini sinfda amalga oshirish bo'yicha kichik tashabbus ishlab chiqing.

O'quvchilarda shakllanadigan kompetensiyalar

1. Ustoz, ta'lim, kitobxonlik, kasb va maqsad tushunchalarini tahlil qiladi, ularning o'zaro bog'liqligini tushuntiradi.
2. Kerakli ma'lumotlarni izlaydi, saralaydi, baholaydi va o'quv faoliyatida qo'llaydi.
3. O'z qiziqishi, qobiliyati va kuchli tomonlarini baholaydi, bilim olish va rivojlanish uchun maqsad belgilaydi.
4. O'z fikr va g'oyalarni og'zaki, yozma va vizual shaklda aniq ifodalaydi.
5. Kasb xaritasi, mini-loyiha, esse yoki taqdimot orqali o'zining kelajak haqidagi tasavvurini ijodiy ifodalaydi.
6. Guruhda ishlaydi, fikr almashadi, boshqalarning qarashlarini hurmat qiladi va umumiy natijaga hissa qo'shadi.
7. Sinf va maktab hayotini yaxshilash, kitobxonlikni rivojlantirish yoki ustoz mehnatini qadrlashga qaratilgan oddiy va foydali g'oyalarni taklif qiladi.

3-mavzu. Ramzlarimiz- g‘ururimiz, o‘zligimiz – ildizimiz! (4 soat)

Kelajak soati mazmuni. O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i, Davlat gerbi va Davlat madhiyasi mamlakatimiz mustaqilligi, xalqimizning milliy o‘zligi va tarixiy xotirasini ifodalovchi davlat ramzlari ekanini tushuntirish. Ularning yaratilish tarixi, qabul qilingan sanalari va davlat hayotidagi o‘rni haqida 5-8-sinf o‘quvchilarining yoshiga mos ma’lumot berish. Davlat bayrog‘idagi ranglar, yarim oy va yulduzlar, Davlat gerbidagi Humo qushi, quyosh, tog‘lar, daryolar, bug‘doy boshloqlari va paxta shoxlari kabi timsollarning mazmunini sodda misollar orqali ochib berish. Ushbu ramzlarda xalqimizning tinchlik, ezgulik, farovonlik, tabiatga mehr va kelajakka ishonch kabi ezgu qarashlari aks etishini anglash. Davlat madhiyasining mazmuni va unda Vatanga muhabbat, xalqimizning orzu-intilishlari, g‘ururi va mustaqillikka sadoqat kabi g‘oyalar ifodalanganini tushuntirish. Madhiyani tinglash va kuylashda rioya qilinadigan odob qoidalarini o‘rgatish. Davlat ramzlarining bayramlar, sport musobaqalari, xalqaro tadbirlar va rasmiy marosimlardagi o‘rnini hayotiy misollar orqali ko‘rsatish. Bayroq, gerb va madhiyaga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, ularni asrash va davlat ramzlaridan foydalanish qoidalariga rioya qilishning ahamiyatini anglash. Davlat va milliy ramzlarning umumiy va farqli jihatlarini ajratish, davlat ramzlariga hurmatni Vatanga daxldorlik, fuqarolik mas‘uliyati va milliy g‘urur bilan bog‘lash. O‘quvchilarda “Davlat ramzlarini hurmat qilish - Vatanga hurmat” degan tushunchani shakllantirish.

Ijodiy topshiriqlar

1. **Infografika** - “O‘zbekiston davlat ramzlari” mavzusida ramzlarning qabul qilingan sanasi, asosiy belgilari va mazmunini bir sahifada ifodalash.
2. **Og‘zaki taqdimot** - “Nima uchun davlat ramzlarini hurmat qilamiz?” mavzusida 2-3 daqiqalik chiqish tayyorlash.
3. **“Ramzlarni taqqoslaymiz”** - bayroq, gerb va madhiyaning o‘xshash hamda farqli jihatlarini Venn diagrammasi yoki jadvalda ko‘rsatish.
4. **Vaziyatli topshiriq** - davlat ramzlariga hurmat bilan yoki hurmatsiz munosabat aks etgan 3-4 ta hayotiy vaziyat tuzish va ulardan to‘g‘ri xulosa chiqarish.
5. **“Men ramzlarimizni asrayman”** - davlat ramzlariga hurmatni kundalik hayotda namoyon etishning 5 ta aniq usulini ishlab chiqish.
6. **Guruhiy loyiha** - 4-5 kishilik guruhda “Ramzlarimiz - milliy g‘ururimiz” mavzusida ko‘rgazma, maket, taqdimot yoki sahna ko‘rinishi tayyorlash.

O‘quvchilarda shakllanadigan kompetensiyalar

1. Davlat ramzlariga oid bilimlarini rasm, komiks, infografika, maket yoki boshqa ijodiy shakllarda ifodalaydi.
2. O‘z fikrini og‘zaki, yozma va vizual shaklda aniq ifodalaydi, taqdimot va muhokamalarda faol ishtirok etadi.
3. Guruhda vazifalarni taqsimlaydi, boshqalarning fikrini tinglaydi va umumiy natijaga hissa qo‘shadi.
4. Davlat ramzlariga oid hayotiy vaziyatlarni tahlil qilib, to‘g‘ri va mas‘uliyatli xatti-harakatni tanlaydi.
5. Davlat ramzlariga hurmatni Vatanga daxldorlik, fuqarolik burchi va mas‘uliyat bilan bog‘laydi.
6. Davlat ramzlarini milliy g‘urur, Vatanga muhabbat va mustaqillik qadri bilan bog‘laydi.

4-mavzu. Qonunga hurmat, xavfsiz va baxtli hayot garovi (4 soat)

Kelajak soati mazmuni. Qonun, huquq, burch, mas'uliyat va adolat tushunchalarini o'quvchilarining kundalik hayoti bilan bog'lab tushuntirish. Konstitutsiyaning inson huquqlari, jamiyatdagi tartib, adolat va xavfsizlikni ta'minlashdagi o'rnini yoshga mos misollar orqali ochib berish. O'quvchilarning ta'lim olish, dam olish, o'z fikrini bildirish, qobiliyatlarini rivojlantirish va himoyalash kabi huquqlarini, shuningdek, ta'lim muassasasi qoidalariga rioya qilish, boshqalarning huquqi va sha'nini hurmat qilish, o'z vazifalarini mas'uliyat bilan bajarish kabi burchlarini anglash. "Mening huquqim - mening burchim" tamoyili asosida huquq va burchning o'zaro bog'liqligini tushuntirish. Oila, maktab, ko'cha, transport va jamoat joylarida xavfsiz va mas'uliyatli xulq-atvor qoidalarini qo'llash. Turli vaziyatlarda o'zining va boshqalarning xavfsizligini hisobga olib, to'g'ri qaror qabul qilish hamda zarur holatda ishonchli kattalardan yordam so'rash. Internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, begona insonlar bilan ehtiyotkor muloqot qilish, nomaqbul xabar va havolalardan saqlanish, kiberbullingni tanish va unga to'g'ri munosabat bildirish qoidalarini o'rganish. Qonun va qoidalarga rioya qilishni shunchaki talab emas, balki o'z huquqi, xavfsizligi va boshqalarning manfaatlarini hurmat qilish vositasi sifatida anglash. Hayotiy vaziyatlarda qonuniy, adolatli va mas'uliyatli xatti-harakatni tanlash, uning oqibatlarini baholash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Ijodiy topshiriqlar

1. **"Mening huquqim - mening burchim"** - o'quvchi o'zining 3 ta huquqi va ular bilan bog'liq 3 ta burchini yozadi hamda ularning qanday bog'liqligini tushuntiradi.
2. **"Qaysi yo'l to'g'ri?"** - kundalik hayotdan qonun yoki qoidaga rioya qilish talab etiladigan bir vaziyatni tanlang. Ikki xil xatti-harakatni ko'rsating va qaysi biri to'g'ri ekanini sabab bilan tushuntiring.
3. **"Huquq bilimdoni"** - mavzu bo'yicha 3 ta savol tuzing va ularni sinfdoshingizga bering. Javoblarini birgalikda muhokama qiling.
4. **"Xavfsiz internet"** - internetdan foydalanishda amal qilish kerak bo'lgan 5 ta xavfsizlik qoidasini tuzing va sinfdoshlaringizga tushuntiring.
5. **"Adolatli qaror"** - ikki tomon o'rtasidagi kelishmovchilik aks etgan vaziyatni tasvirlang. Muammoni adolatli va tinch yo'l bilan hal qilish usulini taklif qiling.
6. **"Xavfsiz maktab"** - guruhda maktabda xavfsizlikni yanada yaxshilash uchun 5 ta taklif ishlab chiqing va ularni sinfdoshlaringizga taqdim eting.

O'quvchilarda shakllanadigan kompetensiyalar

1. Huquqiy va hayotiy vaziyatlarni tahlil qiladi, qonuniy va noqonuniy, xavfsiz va xavfli xatti-harakatlarni farqlaydi hamda oqibatlarini baholaydi.
2. Internetdagi axborot va muloqotning xavf-xatarlarini anglaydi, shaxsiy ma'lumotlarini himoya qiladi va ishonchsiz yoki xavfli kontentga ehtiyotkor munosabatda bo'ladi.
3. Guruhli faoliyatda vazifalarni taqsimlaydi, kelishib ishlaydi va umumiy qaror qabul qilishda ishtirok etadi.
4. Huquq, burch va xavfsizlikka oid g'oyalarni komiks, infografika, hikoya, sahna ko'rinishi yoki loyiha orqali ijodiy ifodalaydi.
5. O'z xatti-harakatlarini nazorat qiladi, qabul qilgan qarorining oqibatlarini anglaydi va mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.

6. Konstitutsiya va qonunlarga hurmat bilan munosabatda bo'lad, o'z huquqlarini bilish bilan birga boshqalarning huquqlarini hurmat qilish zarurligini anglaydi.
7. Huquq va burchning o'zaro bog'liqligini anglaydi, qonun va qoidalarga rioya qilishni xavfsiz va farovon hayotning muhim sharti sifatida qabul qiladi.

5-mavzu. Jasoratli avlod- yurt tayanchi! (3 soat)

Kelajak soati mazmuni. Jasorat, mardlik, qat'iyat, mas'uliyat va vatanparvarlik tushunchalarini o'quvchilarning kundalik hayotidagi sodda va hayotiy misollar orqali tushuntirish. Jasoratning faqat xavfli vaziyatlarda emas, balki qiyinchilikdan qo'rqmaslik, to'g'ri qaror qabul qilish, xatosini tan olish, o'z fikrini odob bilan bildirish va boshlagan ishini oxiriga yetkazishda ham namoyon bo'lishini anglash. 14-yanvar - Vatan himoyachilari kunining mazmuni, Vatan tinchligi va xavfsizligini ta'minlashda uni himoya qiluvchi insonlarning o'rni haqida yoshga mos tushuncha berish. Vatanga xizmat qilishning turli shakllari: yaxshi o'qish, bilim va ko'nikmalarni egallash, halol mehnat qilish, qonun-qoidalarga rioya etish, tabiat va jamoat mulkini asrash, boshqalarga yordam berish orqali ham namoyon bo'lishini tushuntirish. Ajdodlarimiz va zamondoshlarimizning jasorat, matonat, mehnatsevarlik va Vatanga sadoqat namunalarini o'rganish, ulardagi ijobiy fazilatlarni o'z hayoti bilan bog'lash. Qiyin yoki kutilmagan vaziyatlarda vahimaga berilmaslik, xavfsizlik qoidalariga amal qilish, vaziyatni to'g'ri baholash va zarur hollarda kattalardan yordam so'rash ko'nikmalarini rivojlantirish. Oila, maktab va jamoada o'z vazifalarini mas'uliyat bilan bajarish, do'stlariga ko'maklashish, hamjihatlikda harakat qilish va umumiy maqsadga erishishda o'z hissasini qo'shish orqali "Jasoratli avlod - yurt tayanchi" g'oyasini hayotiy faoliyat bilan bog'lash.

Ijodiy topshiriqlar

1. **Komiks** - "Qiyin vaziyatda to'g'ri qaror" mavzusida 4-6 kadrli komiks yaratish.
2. **"Maqsadlar daraxti"** - kelajakdagi asosiy maqsadini belgilab, unga erishish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va harakatlarni daraxt shaklida ifodalash.
3. **Og'zaki taqdimot** - "Men yurtim tayanchi bo'lish uchun..." mavzusida 1-2 daqiqalik chiqish tayyorlash.
4. **"Jasoratli inson"** - ajdodlarimiz yoki zamondoshlarimizdan birining jasorati haqida ma'lumot to'plash va undan olgan sabog'ini aytib berish.
5. **Vaziyatli topshiriq** - berilgan qiyin vaziyatda qanday qaror qabul qilishini, nima uchun aynan shu yo'lni tanlashini va qanday xavfsizlik choralariga amal qilishini asoslash.
6. **Guruhiy loyiha** - 4-5 kishilik guruhda "Biz - yurtimiz kelajagimiz" mavzusida poster, sahna ko'rinishi, taqdimot yoki kichik loyiha tayyorlash.

O'quvchilarda shakllanadigan kompetensiyalar

1. Hayotiy vaziyatlarni tahlil qiladi, haqiqiy jasoratni o'ylamasdan tavakkal qilishdan farqlaydi va qarorlarning oqibatlarini baholaydi.
2. Qiyin vaziyatlarda xavfsiz, oqilona va mas'uliyatli harakat yo'lini tanlaydi.
3. O'zining kuchli tomonlarini aniqlaydi, qat'iyat, mas'uliyat va fidoyilikni rivojlantirishga yo'naltirilgan maqsadlar belgilaydi.
4. O'z qarashlarini aniq ifodalaydi, jasorat va vatanparvarlik haqidagi fikrlarini hayotiy misollar bilan asoslaydi.
5. Jamoada ishlaydi, o'zaro yordam va birdamlikni namoyon etadi, umumiy maqsadga erishishga hissa qo'shadi.

6. “Men yurtimga tayanch bo‘ladigan avlodman” mavzusida mini-loyiha, hikoya, poster yoki “Jasorat qadamlari” rejasini yaratadi.

6-mavzu. Buyuk ajdodlar merosi-ma’naviy kamolot manbai. (4 soat)

Kelajak soati mazmuni. Buyuk ajdodlarimizning ilm-fan, adabiyot, ma’rifat, davlat boshqaruvi va madaniyat rivojiga qo‘shgan hissasi haqida o‘quvchilarning yoshiga mos, hayotiy misollar asosida ma’lumot berish. Ajdodlar merosi, tarixiy xotira, ilmga intilish va ma’naviy kamolot tushunchalarini o‘zaro bog‘lash. Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, ijodi va faoliyatida aks etgan ilmga intilish, insonparvarlik, adolat, Vatanga sadoqat, matonat va ijodkorlik kabi fazilatlarni o‘rganish. Ularning asarlaridan o‘quvchilarning yoshiga mos namunalar asosida ezgulik, bilim, mehnat, adolat va insoniylik g‘oyalarini anglash. Ajdodlar merosining bugungi hayotdagi ahamiyatini ochib berish, tarixiy shaxslarning faoliyatidan ibrat olish va olingan saboqlarni shaxsiy hayot bilan bog‘lash. O‘quvchilarda ilm olish, kitob o‘qish, izlanish, o‘z qobiliyatlarini rivojlantirish va jamiyatga foydali bo‘lishga intilishni shakllantirish.

Ijodiy topshiriqlar

1. **Kichik hikoya** - “Agar Navoiy va Bobur bilan uchrashsam...” mavzusida 7-10 gapdan iborat hikoya yozish.
2. **Infografika** - Alisher Navoiy yoki Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, faoliyati va merosini asosiy faktlar hamda fazilatlar orqali tasvirlash.
3. **“Fazilatlar xaritasi”** - tanlangan ajdodning 3-5 ta muhim fazilatini aniqlash va ularni o‘quvchining kundalik hayotidagi amaliy harakatlar bilan bog‘lash.
4. **Og‘zaki taqdimot** - “Men Navoiy va Boburdan nimani o‘rgandim?” mavzusida 2-3 daqiqalik chiqish tayyorlash.
5. **“Bir g‘oya - bir amal”** - ajdodlar merosidan bitta g‘oyani tanlab, uni bugungi hayotda qanday amalga oshirish mumkinligini ko‘rsatish.
6. **Guruhiy loyiha** - 4-5 kishilik guruhda “Ajdodlar merosi kelajak uchun saboq” mavzusida poster, taqdimot, sahna ko‘rinishi, ko‘rgazma yoki raqamli loyiha tayyorlash.

O‘quvchilarda shakllanadigan kompetensiyalar

1. Ajdodlarimizning hayoti va faoliyatini tahlil qiladi, ularning fazilatleri va g‘oyalarini bugungi hayot bilan bog‘laydi.
2. Tarixiy ma’lumot va g‘oyalarni rasm, hikoya, esse, komiks, infografika yoki loyiha orqali ijodiy ifodalaydi.
3. Tarixiy shaxslar haqida ma’lumot izlaydi, saralaydi, taqqoslaydi va asosiy mazmunni ajratib oladi.
4. O‘z fikri va xulosalarini og‘zaki, yozma va vizual shaklda aniq ifodalaydi, taqdimot qiladi.
5. Guruhda vazifalarni taqsimlaydi, fikr almashadi va umumiy ijodiy mahsulot yaratadi.
6. Ajdodlar merosidagi g‘oyalarni zamonaviy hayotda qo‘llash yo‘llarini topadi va amaliy takliflar ishlab chiqadi.

7-mavzu. Qadriyatlar - o‘zligim timsoli. (3 soat)

Kelajak soati mazmuni. Qadriyat, urf-odat, an’ana, hurmat, mehr-oqibat va milliy o‘zlik tushunchalarini o‘quvchilarning kundalik hayoti bilan bog‘lab tushuntirish. Qadriyatlarining oila, maktab va jamiyat hayotidagi o‘rnini anglash, ularni hurmat qilish va amalda namoyon etish. 8-mart - Xalqaro xotin-qizlar kunining mazmuni. Ona, buvi, opa-singil va ustozlarning oila hamda jamiyat

hayotidagi o'rnini qadrlash, ularga hurmat va e'tibor ko'rsatish, minnatdorlikni odobli muomala va yaxshi amallar orqali ifodalash. Ota-onani e'zozlash, kattalarga hurmat, kichiklarga g'amxo'rlik, mehmondo'stlik, saxovat, do'stlik, hamjihatlik va o'zaro yordam kabi qadriyatlarning kundalik hayotdagi ko'rinishlarini misollar orqali ochib berish. Milliy an'analarni mazmunini anglagan holda asrash va davom ettirishning ahamiyatini tushuntirish. Navro'zning xalqimiz hayotidagi tarixiy va madaniy o'rni, uning yangilanish, ezgulik, saxovat, mehr-oqibat va hamjihatlik kabi g'oyalarini yoritish. Navro'z bilan bog'liq urf-odatlar, milliy taomlar, xalq o'yinlari va an'analari orqali milliy merosga qiziqishni oshirish. O'zbekiston hududida yashovchi turli millat va elatlarning urf-odatlari, tili va madaniyatiga hurmat bilan munosabatda bo'lish, o'z qadriyatlarini qadrlagan holda boshqalarning an'alarini ham e'zozlash, do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlash.

Ijodiy topshiriqlar

1. **Navro'z loyihasi** - Navro'zdagi bir an'ana yoki udumni tanlab, uning mazmuni va bugungi hayotdagi ahamiyatini poster, taqdimot yoki qisqa matn orqali yoritish.
2. **"Ikki madaniyat - bir hurmat"** - O'zbekiston xalqlaridan birining urf-odati bilan boshqa xalqning bir an'anasini taqqoslab, o'xshash va farqli jihatlarini ko'rsatish.
3. **Sahna ko'rinishi** - "Qadriyat kundalik hayotda» mavzusida 3-5 kishilik guruhda qisqa hayotiy vaziyatni namoyish etish.
4. **"Men davom ettiraman"** - o'z oilasi yoki mahallasida saqlanib kelayotgan bir an'anani tanlab, uni kelajakda qanday davom ettirishini 5 bosqichda ifodalash.
5. **"8-mart - mehr va ehtirom kuni"** - ona, buvi, opa-singil yoki ustozga minnatdorlikni rasm, tabriknoma, she'r yoki qisqa murojaat orqali ifodalash.
6. **"Navro'z an'anasi"** - Navro'zga oid bir an'anani tanlab, uning mazmuni, tarbiyaviy ahamiyati va bugungi hayotdagi o'rnini rasm, taqdimot yoki qisqa matn orqali yoritish.
7. **"Qadriyatlar xaritasi"** - oila, maktab, mahalla va jamiyatda namoyon bo'ladigan qadriyatlarni sxema yoki chizma orqali ko'rsatish.

O'quvchilarda shakllanadigan kompetensiyalar

1. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mazmunini tahlil qiladi, ularning kundalik hayotdagi ahamiyatini baholaydi hamda an'ana va zamonaviy hayot o'rtasidagi bog'liqlikni anglaydi.
2. Qadriyat va an'analari haqidagi bilimlarini infografika, hikoya, komiks, sahna ko'rinishi yoki boshqa ijodiy shakllarda ifodalaydi.
3. Suhbat va intervyu jarayonida savollar beradi, tinglaydi, o'z fikrini aniq bayon qiladi va o'rgangan ma'lumotlarini boshqalarga yetkazadi.
4. Guruhij topshiriqlarda vazifalarni taqsimlaydi, o'zaro fikr almashadi va umumiy natijaga mas'uliyat bilan hissa qo'shadi.
5. Milliy urf-odat va an'analari haqida ma'lumot to'playdi, uni saralaydi, taqqoslaydi va muhim jihatlarini ajratib oladi.
6. Milliy qadriyatlarni asrash va ularni kundalik hayotda davom ettirishning amaliy yo'llarini taklif qiladi.

8-mavzu. Tariximiz- faxrimiz, merosimiz – boyligimiz. (4 soat)

Kelajak soati mazmuni. Tarixiy xotira, milliy meros, vatanparvarlik, bunyodkorlik va ajdodlari merosiga hurmat tushunchalarini o'quvchilarning yoshiga mos hayotiy misollar asosida yoritish. Amir Temurning hayoti va faoliyati, uning Movarounnahr tarixidagi o'rni, davlat boshqaruvi, harbiy mahorati va bunyodkorlik faoliyati haqida asosiy ma'lumotlarni berish. Amir

Temur davrida Samarqand va boshqa shaharlarda bunyod etilgan me'moriy inshootlar, obodonlashtirish ishlari va ularning bugungi tarixiy-madaniy ahamiyati haqida tushuncha berish. Temuriylar davrida ilm-fan, ta'lim, adabiyot, san'at va me'morchilikning rivojlanishiga e'tibor qaratish. Tarixiy shaxslar haqida fikr yuritishda tarixiy manbalarga tayanish, fakt va fikrni farqlash, turli qarashlarni xolis baholash ko'nikmalarini shakllantirish. Amir Temur va Temuriylar davri merosini o'rganish orqali ilmga intilish, bunyodkorlik, tartib-intizom, mas'uliyat va Vatanga xizmat qilish kabi fazilatlarni anglash. Tarixiy va madaniy obidalarni asrash, ularni kelajak avlodga yetkazish har bir insonning mas'uliyati ekanini tushuntirish.

Ijodiy topshiriqlar

1. **Vaqt jadvali** - Amir Temur hayotidagi muhim voqealarni vaqt ketma-ketligida joylashtirish.
2. **Infografika** - "Amir Temur - davlat arbobi va bunyodkor" mavzusida asosiy faktlar, faoliyat yo'nalishlari va tarixiy merosni sxema orqali ifodalash.
3. **"Bir tarixiy fakt - bir xulosa"** - Amir Temur faoliyatiga oid 3 ta tarixiy faktni tanlash va har biridan qanday saboq olish mumkinligini yozish.
4. **Og'zaki taqdimot** - "Amir Temur tariximizda qanday iz qoldirgan?" mavzusida 2-3 daqiqalik chiqish tayyorlash.
5. **"Merosni asraymiz" mini-loyihasi** - tarixiy obidalar yoki madaniy merosni asrash bo'yicha o'quvchi amalga oshira oladigan 3-5 ta taklif ishlab chiqish.
6. **"Tarixchi nigohida"** - tanlangan tarixiy voqea haqida turli manbalardan ma'lumot to'plash, asosiy faktlarni ajratish va qisqa xulosa chiqarish.

O'quvchilarda shakllanadigan kompetensiyalar

1. Amir Temur va Temuriylar davriga oid tarixiy ma'lumotlarni tahlil qiladi, fakt va fikrni farqlaydi, tarixiy voqealarga dalillar asosida xulosa beradi.
2. Tarixiy bilimlarini vaqt jadvali, xarita, infografika, hikoya, komiks yoki boshqa ijodiy shakllarda ifodalaydi.
3. Tarixiy manbalardan kerakli ma'lumotlarni izlaydi, saralaydi, taqqoslaydi va ishonchli ma'lumot asosida xulosa chiqaradi.
4. Tarixiy mavzudagi fikr va xulosalarini og'zaki, yozma hamda vizual shaklda aniq va izchil ifodalaydi.
5. Guruhiy topshiriqlarda vazifalarni taqsimlaydi, o'zaro fikr almashadi va umumiy natijaga mas'uliyat bilan hissa qo'shadi.
6. Tarixiy va madaniy merosni asrash bilan bog'liq muammolarni aniqlaydi va ularni hal etish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqadi.

9-mavzu. Xotira- mangu, qadr- muqaddas (4 soat)

Kelajak soati mazmuni. Xotira, qadrlash, tarixiy xotira, inson qadri, tinchlik va avlodlar davomiyligi tushunchalarini o'quvchilarning yoshiga mos hayotiy misollar va oilaviy tajribalar orqali tushuntirish. 9-may - Xotira va qadrlash kunining tarixiy va ma'naviy ahamiyati haqida ma'lumot berish. Vatan tinchligi va xalq osoyishtaligini ta'minlashga hissa qo'shgan insonlarni yod etish, ularning jasorati va xizmatlarini qadrlash. Urush va og'ir sinovlar davrida xalqimizning matonati, birdamligi, mehr-oqibati va o'zaro yordami haqida yoshga mos misollar asosida tushuncha berish. Tinchlik va osoyishtalikning oila, maktab va jamiyat hayotidagi ahamiyatini anglash. Keksalar va faxriylarning hayotiy tajribasini qadrlash, ularga hurmat va e'tibor ko'rsatish

madaniyatini shakllantirish. Oila tarixi, ajdodlar va yaqin insonlar haqidagi xotiralarni o'rganish orqali avlodlar o'rtasidagi bog'liqlikni anglash. Xotirani asrash va inson qadrini ulug'lashning kundalik hayotdagi oddiy ko'rinishlarini aniqlash: kattalarga yordam berish, ularning suhbatini tinglash, oilaviy tarixni o'rganish, xotira va tarixiy obidalarga ehtiyotkor munosabatda bo'lish.

Ijodiy topshiriqlar

1. **Oilaviy xotira** - oila a'zolaridan birining hayoti yoki ajdodlar xotirasi haqida ma'lumot to'plash va uni foto, rasm yoki qisqa matn orqali taqdim etish.
2. **Intervyu** - keksa inson yoki oila a'zosi bilan "Tinchlik va inson qadri" mavzusida suhbat o'tkazib, 5-7 ta muhim fikrni yozib olish va sinfdan baham ko'rish.
3. **Vaqt jadvali** - oila yoki mahalla tarixidagi muhim voqealarni avlodlar ketma-ketligida joylashtirib, qisqacha izohlash.
4. **Infografika** - "Xotira, qadrlash, tinchlik, kelajak" g'oyalarini tasvirlar va qisqa jumlar orqali ifodalash.
5. **"Bir xotira - bir saboq"** - keksa inson yoki oila a'zosidan eshitilgan bir voqeani tanlab, undan qanday saboq olganini yozish.
6. **"Tinchlikni asrashning 5 qadami"** - o'quvchining kundalik hayotida tinchlik, do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladigan 5 ta amaliy harakat rejasini tuzish.

O'quvchilarda shakllanadigan kompetensiyalar

1. "9-May - Xotira va qadrlash kuni" ning mazmunini anglaydi, tarixiy xotira, inson qadri, tinchlik va avlodlar davomiyligi o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntiradi.
2. Tarixiy va hayotiy vaziyatlarni tahlil qilib, xotira, hurmat, qadrlash va tinchlikning inson hamda jamiyat hayotidagi ahamiyatiga xulosa chiqaradi.
3. Keks avlod vakillarini tinglaydi, suhbat va intervyu jarayonida savollar beradi, o'z fikrini aniq va hurmat bilan ifodalaydi.
4. Oila va tarixiy manbalardan ma'lumot izlaydi, muhim ma'lumotlarni saralaydi va ularni taqdimot, xotira lavhasi yoki boshqa ijodiy shaklda ifodalaydi.
5. Guruhli faoliyatda o'zaro hurmat va mas'uliyat asosida vazifalarni taqsimlaydi, umumiy natijaga hissa qo'shadi.
6. Xotira va qadrlash g'oyalarini hikoya, rasm, komiks, taqdimot, infografika yoki loyiha orqali mustaqil ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. - Toshkent, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.
3. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-139-son, 2008-yil 7-yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni. - Toshkent.
5. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida"gi Qonuni.

6. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to'g'risida"gi Qonuni.
7. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida"gi Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. 2023-yil 11-sentabr.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. 2022-yil 28-yanvar.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son qarori. "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi".
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 28-yanvarda 34-son qarori. "Uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish dasturini tasdiqlash to'g'risida".
12. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida Kelajak soati darslarini o'tkazish konsepsiyasi". - Toshkent, 2026.

II. Ilmiy va metodik adabiyotlar

13. Amir Temur. "Temur tuzuklari". - Toshkent: "O'zbekiston", 2019.
14. Alisher Navoiy. "Mahbub ul-qulub". - Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi".
15. Alisher Navoiy. "Hayrat ul-abror". - Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi".
16. Zahiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma". - Toshkent: "Sharq", 2002.
17. Abdulla Avloniy. "Turkiy guliston yoxud axloq". - Toshkent: "O'qituvchi", 1992.
18. Hasanboyev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O. "Pedagogika". - Toshkent: "Fan va texnologiya", 2011.
19. Mavlonova R., To'rayeva O., Xoliqberdiyev K. "Pedagogika". - Toshkent: "O'qituvchi", 2008.
20. Tolipov O., Usmonboyeva M. "Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari". - Toshkent: "Fan", 2006.
21. G'oziyev E.G'. "Umumiy psixologiya". - Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2010.

III. Xorijiy adabiyotlar

22. UNESCO. Global Citizenship Education: Topics and Learning Objectives. - Paris: UNESCO, 2015.
23. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. - Paris: UNESCO, 2021.
24. OECD. The Future of Education and Skills 2030: OECD Learning Compass 2030. - Paris: OECD, 2019.
25. UNICEF. The State of the World's Children: For Every Child, Every Right. - New York: UNICEF.
26. OECD. PISA 2022 Assessment and Analytical Framework: Mathematics, Reading, Science, Problem Solving and Financial Literacy. - Paris: OECD Publishing, 2023.

27. World Economic Forum. The Future of Jobs Report 2025. - Geneva: World Economic Forum, 2025.

IV. Elektron ta'lim resurslari

28. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi – LexUZ. – <https://lex.uz>
29. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining rasmiy veb-sayti. <https://gov.uz/oz/uzedu>
30. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali. – <https://gov.uz>
31. O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali. – <https://my.gov.uz>
32. Ziyonet ta'lim portali. – <https://www.ziyonet.uz>
- Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasining elektron kutubxonasi. – <https://e-base.natlib.uz>
33. Birlashgan Millatlar Tashkilotining rasmiy veb-sayti. – <https://www.un.org>
34. Birlashgan Millatlar Tashkilotining O'zbekistondagi vakolatxonasi. – <https://uzbekistan.un.org>
35. UNESCO rasmiy veb-sayti. – <https://www.unesco.org>
36. UNESCO Digital Library. – <https://unesdoc.unesco.org>
37. UNICEF rasmiy veb-sayti. – <https://www.unicef.org>
38. OECD rasmiy veb-sayti. – <https://www.oecd.org>
39. OECD Learning Compass 2030. – <https://www.oecd.org/en/data/tools/oecd-learning-compass-2030.html>